

**MUSIQA MADANIYATI TA'LIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR VA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH**

Shahrisabz davlat peadagogika instituti

Musiqa ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Usmonov Jonibek Xusan o'g'li

Ilmiy rahbar: Esonova Marjona Sirojiddin qizi

esonovaMar731@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa madaniyatini ta'limi va tarbiyadagi ahamiyati, uning o'quvchilarda estetik va ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi roli haqida so'z yuritilgan. Musiqa savodi, qo'shiqlarni o'rganish va musiqiy asarlarni idrok etish orqali o'quvchilarning emotsional va estetik his-tuyg'ulari shakllanadi. Musiqa ta'limi orqali o'quvchilar ijodiy tafakkurga ega bo'lib, o'z his-tuyg'ularini musiqa orqali ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: Musiqa "Bumerang" "Skarabey" "Tafakkur" "Musiqa madaniyati darslarining didaktik prinsplari"

**INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND THE DEVELOPMENT
OF CREATIVE THINKING IN MUSIC EDUCATION**

Annotation: This article discusses the importance of music culture in education and upbringing, its role in the development of aesthetic and creative thinking in students. Through musical literacy, learning songs and perceiving musical works, students' emotional and aesthetic feelings are formed. Through music education, students acquire creative thinking and have the opportunity to express their feelings through music.

Keywords: Music "Boomerang" "Scarab" "Thought" "Didactic principles of music culture lessons"

**РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И
ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В МУЗЫКАЛЬНО-КУЛЬТУРНОМ
ОБРАЗОВАНИИ**

Аннотация: В данной статье говорится о значении музыкальной культуры в воспитании и обучении, ее роли в развитии эстетического и творческого мышления у студентов. Эмоциональные и эстетические чувства учащихся формируются посредством музыкальной грамотности, разучивания песен и понимания музыкальных произведений, которые они смогут выразить через музыку.

Ключевые слова: Музыка «Бумеранг», «Скарабей», «Мышление», «Дидактические основы уроков музыкальной культуры».

Musiqa madaniyati fanni umumiy o'rtta ta'lim matablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori har tomonlama tarbiyalash va ularni barkamol inson qilib shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kuchayib bormoqda. Tavsiya etilgan texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishda o'qituvchi bu texnologiyalarning maqsadi, mazmuni va o'z fani xususiyatlaridan kelib chiqib to'liq, qisman yoki printsiplardan foydalanishni o'ylab rejalashtirishi zarur. Aks holda dars samaradorligini oshirishda biror natijaga erisha olmasligi mumkin.

Xar bir predmetni o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. Musiqa madaniyati va san'ati darslarining asosiy hususiyatlari quyidagi faoliyatlar bilan bog'liq:

- Vokal, xor mashqlarini kuylash orqali qo'shiq aytish malakasini egallash
- Qo'shiqlar o'rganish va kuylash
- Musiqa asarini tinglash va idrok etish
- Musiqa savodi (nota yozuvini o'qib, oddiy kuy ohanglarini aniqlash)
- Musiqa asari tavsifiga mos raqs va ritmga harakatlar bajarish
- Musiqa, uning yaratuvchilari, ijrochilari va tinglovchilari haqida bilim malaka ko'nikmalariga ega bo'lish.

Musiqa savodi, ya'ni nota yozuvi elementlari, yakkanavozlik, jo'rovoqlik guruhlariga bo'linib "Bumerang", texnologiyasi, "tarmoqlar" metodi, "klaster", "skarabey" texnologiyasi, "aqliy hujum" va boshqa interfaol metodlaridan foydalanish mumkin.

O'qituvchi darsning maqsadi va faoliyatlar bo'yicha:

Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy va an'anaviy darslar tashkil qilish jarayonida to'plangan tajribalarni tahlil qilish.

"Bumerang" texnologiyasi o'quvchilarning tanqidiy fikrlashlariga imkoniyat yaratadi: g'oyalarni, fikrlarni hamda dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"Skarabey" (aqliy hujum) texnologiyasi-interfaol texnologiya bo'lib, o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Musiqa ta'limi darslarida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish musiqa ta'limining kafolatlangan natijalariga erishish omili bo'lib hisoblanadi.

Texnologiyalar mohiyatiga ko'ra:

- musiqa mazmunini mantiqiy o'zlashtirishga qaratilgan tayanch ijroviy-ijodiy texnologiyalar;
- musiqiy-nazariy o'quv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi;
- integtrativ aloqa va bog'liqlikda bo'lish texnologiyalari;

-o'quvchilarni musiqiy faoliyatlarda faol ishtirok ettirish va nafosatli tarbiyalash texnologiyalari turlariga bo'linadi.

O'quvchilarning musiqiy-o'quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan o'quv faoliyati maxsus va alohida shakl sifatida ko'rib chiqiladi. Shunga tegishli texnologiyada o'quvchilar musiqiy bilimlarni ma'lum bir topshiriqlar, masalan, qo'shiqni musiqiy va badiiy tahlil qilish yoki uni nafis va jozibali kuylash, cholg'u asboblari haqida ma'lumotlar to'plash, ayrim sodda musiqiy tuzilmalar xususiyatini o'rganib kelish orqali egallaydilar.

Musiqqa sohasida o'quvchilar faoliyatini faollashtirish turli musiqiy o'yinlar texnologiyasi, musiqiy asarni idrok etish, qo'shiq kuylash, cholg'u asboblari ijro etish, ularni nazariy jihatdan tahlil qilish kabi texnologiyalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Musiqqa madaniyati darslari pedagogikasining didaktik nazariyasi va prinsiplari asosida tuziladi. Mazkur prinsiplar o'qituvchi hamda o'quvchi tomonidan bajariladigan ta'lim asoslari dars mazmuni metodlari va bajariladigan ta'lim asoslari dars mazmunini metodlari va darslarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi.

Musiqqa madaniyati darslarining didaktik prinsiplari 4 turdan iborat:

1. Musiqqa ta'limi va tarbiyasida sistemalik, ilmiylik va davomiylik prinsipi.
2. Darsda o'quvchining ongli va aktivlik prinsipi.
3. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi prinsipi.
4. Musiqqa darslarida bilim va malakalarining mustahkamlik prinsipi.

Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqqa darsini mazmun va rejasini tuzish umumdidaktik prinsiplar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib musiqqa darsini davlat ta'lim standartiga muvofiq, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda uzluksizligini va uzviyligini asos qilib musiqqa faoliyatini izchilligini ta'minlaydi.

1. Musiqqa ta'limi va tarbiyasida sistemalik, ilmiylik va davomiylik prinsipi har bir darsda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosida tashkil topishi lozim. Musiqqa haqidagi bilimlar doirasi musiqqa ta'lim va tarbiyasining asosiy omillaridir.

2. Darsda o'quvchilarni onglilik va aktivlik prinsipi. Ushbu prinsip didaktikaning yetakchi prinsiplaridandir. Chunki, bilimni o'zlashtirish o'quvchining aqliy faoliyatiga asos bo'lgan bilish jarayoniga bog'liqdir.

3. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi prinsipi. Mazkur prinsip, dasturdan tanlab olingan o'quv materiallari va mazkur metodik materiallar asosida dars mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi.

4. Musiqqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi. Mazkur prinsiplarni amalga oshirishning eng asosiy sharti, yuqorida bayon etgan to'rtta prinsipga jiddiy amal qilishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik prinsiplari, musiqa madaniyati darslarida katta ahamiyatga ega bo'lib, musiqani hayot bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy tarbiya insonni go'zallikka yetaklovchi bir vosita bo'lib, u insonni estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Inson hayotini musiqa san'atidagi tasavvur qilib bo'lmaydi. Tarbiyada musiqani idrok qilish malakalarini faol rivojlantirish, san'at va atrof hayotdagi go'zal narsalarga muhabbat tuyg'usini hamda o'z his-tuyg'ularini musiqa tilida ijodiy namoyon qilish qobiliyatini shakllantirish katta rol o'ynaydi.

Tafakkur – kishi ongida borliqning uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir. Umumiy psixologiyada tafakkurning quyidagi turlari tavsiflanadi: ko'rgazmali-harakatli. Musiqiy tafakkur - musiqiy madaniyat o'ziga xosligi, qonuniyatlarni bilishning spetsifik, intellektual jarayoni va musiqiy san'at asarini tushunishdir. Musiqa san'atining o'ziga xosligi bilan bog'liq ravishda, musiqiy tafakkurning yana bir turini ajratib ko'rsatish mumkin-bu ijodiy tafakkur.

Ijodiy tafakkur fikrlash elementlariga yangilik, noyoblik, qaytarilmaslik qo'shilgandagi tafakkurni nazarda tutadi. Ijodiylik elementiga ko'ra tafakkur konvergent va divergent tafakkurga bo'linadi. Musiqiy tafakkur bevosita badiiy obrazning tug'ilishiga bog'liq. Musiqiy asardagi badiiy obraz moddiy, ruhiy va mantiqiy ibtido birligidan iborat. Turli metodik manbaalarda musiqiy bilim oluvchi o'quvchilarning ijodiy fikrlashiga va ijodkorlikka o'rgatish borasida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, ba'zi bir mutaxassislar fikricha, ijodkorlikni shakllantirish uchun bolalarning bilimni anglab o'tish imkoniyatlarini rivojlantirib, turli ilmiy adabiyotlardan to'g'ri xulosa chiqarib olishga o'rgatish jarayoni muhim hisoblanadi.

Musiqa ijodkorligi faoliyati sinfdagi iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish uchun juda muhimdir. Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishi tarbiyaga va qo'llab-quvvatlashga bog'liqdir. Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishiga qobiliyatlarini aniq tahlil etish, bolaning o'ziga xos fazilatlarini hisobga olish, ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun zarur.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mustaqil fikrlash bir qarashda insonning individual xususiyati bo'lsada, bu xususiyat jamiyatda, insonlar o'rtasidagi muhit yaxshi bo'lgandagina rivojlanadi.

Fikr bu -insonning faoliyati, iqtidori, qudrati va bilimni namoyon etadigan ma'naviy-ahloqiy, insoniy sifatdir.

Tafakkur motivlari ikki turga bo'linadi:

O'ziga xos bilish motivlari.

O'ziga xos bo'lmagan motivlar.

O'ziga xos bilish motivlariga tafakkur faoliyatiga undovchi va uni harakatga keltiruvchi kuchlar, bilish ehtiyojlari namoyon bo'ladigan qiziqish va motivlar kiradi.

O'ziga xos bo'lmagan motivlar esa ozmi-ko'pmi tashqi sabablar ta'sirida boshlanadi. Masalan, maktab o'quvchisi biror narsani bilib olish ishtiyoqida emas, balki kattalarning talablarini bajarish majburiyati orqasida yoki o'rtoqlaridan orqada qolib ketishdan qo'rqqani uchun dars tayyorlaydi .

Shaxs ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining maqsadli va samarali kechishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

O'quvchilarda ijodiy – “Men” – konsepsiyasini shakllantirish.

Ijodiy jarayon mohiyatini nazariy to'g'ri tushunish o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini to'g'ri aniqlash va rivojlantirishda ta'limning samarali metodlari va vositalarini maqsadli tanlash, bolalar ijodi mahsulini to'g'ri baholash imkonini beradi.

Bolalarga insoniy munosabat:

- bolalarga mehr-muhabbatli bo'lish;
- har bir bolaning kelajagiga ishonish;
- hamkorlik qilish, muomala mahorati;
- majburlashdan xoli bo'lish;
- ijodiy mezon va omillarga katta e'tibor berish;
- bolalarning kamchilik va nuqsonlariga chidamli bo'lish kabilarni o'z ichiga qamrab oladi.

Individual yondashuv. Yangicha individual yondashuvning mohiyati shundaki, o'qituvchi ta'lim tizimida o'quv fanidan bolaga tomon emas, balki boladan o'quv faniga tomon harakat qilishi, o'quvchining rivojlantirilishi, takomillashtirilishi, boyitilishi lozim.

Individual yondashuv:

- shaxsning yaxshi fazilatlarini aniqlash;
- shaxsni muntazam psixologik – pedagogik tashhislash;
- ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs xususiyatlarini hisobga olish;
- shaxs rivojlanishini bashorat etish va boshqalarni qamrab oladi.

O'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari deyilganda shaxsning ijodiy xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan, oldindan rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya ishlari jarayoni tushuniladi. Bunda shaxsning qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metod, usul va vositalari o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Musiqa madaniyati darslarida innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanish, o'quvchilarning musiqiy faolligini oshirish, estetik va emotsional rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Musiqa madaniyati va san'ati darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning ijodiy

tafakkurini rivojlantirish va musiqa ta'limining samaradorligini oshirish uchun muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchi Solomonova T.E. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti 1981 y.
2. A.Xasanov "Maktabda ashula" Toshkent-1981 yil.
3. Sh.Yo'ldashev "O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. Toshkent 1985 yil
4. S.Begmatova, Q.Mamirov va boshq. G'ofur Gulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti Toshkent – 2001
5. Tohirjon Ortiqov "Musiqqa o'qitish metodikasi" Toshkent "Muharrir" nashriyoti 2010-yil.
6. Qobiljon Usmonov "Musiqqa darsligi" "Istiqlol" nashriyoti Toshkent – 2006
7. Jo'rayev A. "Tarbiyaviy darslarni o'tish". T., "O'qituvchi" 1994y.
7. Yusupov E va b. "Inson barkamolligi" –T.: O'zbekiston 1989y.G.M.Sharipova. "Musiqqa o'qitish metodikasi". -T., RTM. 2000 yil.
8. Musurmonova. O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.- Toshkent: O'qituvchi, 1996.- 5-6 b.
9. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Musiqqa San'atning Pedagogik Shakllanish Jarayonlari." *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends* 2.5 (2024): 58-62.
10. Isomovich, T. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 7(5), 93-99.
11. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "XX ASRDA O'ZBEK MUSIQA SAN'ATIDA TUB BURILISH, YOHUD IJROCHILIK USLUBINI YANGI SHAKLI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 20.5 (2024): 27-31.
12. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI." Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari 7.5 (2024): 93-99.
13. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Historical Pedagogical Content And Characteristics Of Dutor Instrument Performance." *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments* 2.5 (2024): 310-316.